

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**

**MADRID TIZIMI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА**

**Toshkent– 2024**


## **Madrid tizimi haqida umumiy tushuncha**

Tovar va xizmat ko‘rsatish belgisi tadbirkorlik bilan mashg‘ul yuridik yoki jismoniy shaxsning mahsulotlari yoki xizmatlarini individuallashtirish hamda ularni boshqa raqobatchilar taklif etayotgan aynan shu xildagi va turdagи tovar (xizmat)lardan ajrata olish imkonini beradi. Muayyan nom ostidagi mahsulot (xizmat)larning sifati iste’molchilarni qoniqtirsa, kelajakda ular shu belgilarga qarab o‘sha tovarlarni sotib olishga yoki o‘sha xizmatlardan foydalanishga odatlanadilar. Qolaversa, tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar yoki xizmat belgisi boshqa tadbirkor va ishbilarmonlarning undan foydalanish uchun litsenziya so‘rab murojaat qilishlariga, ikki o‘rtada o‘zaro hamkorlik shartnomasi tuzilishiga turtki beradi. Bundan ruhlangan belgi egasi tadbirkorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga, o‘z mahsuloti, ishi va xizmati sifatini yanada yaxshilashga, reklamani kuchaytirishga urg‘u berib, jamoatchilik nazariga tushishga, bozordan mustahkam o‘rin egallashga intiladi. Natijada uning hamkorlari, xaridorlari va mijozlari ko‘payadi, daromadiga daromad qo‘silib, obro‘-e’tibori oshadi. Endilikda u faqatgina milliy bozorda o‘z mahsulotini sotibgina qolmay, jahon bozoriga kirishga intila boshlaydi. Bu borada esa unga mahsulotning himoyasi uchun kuchli mexanizm zarur.

Tovar belgisining har qanday davlat hududidagi muhofazasi uni ro‘yxatga olish kuchga kirgandan so‘ng yuzaga keladi. Faqat ro‘yxatga olingandan keyingina talabnama beruvchi tovar belgisining egasi degan maqomni va belgi uchun tegishli mutlaq huquqni oladi. Shuning uchun tovar belgisini xorijiy ro‘yxatga olinishi o‘z mahsulotini chet mamlakatga eksport qilayotgan korxona biznesi muvaffaqiyatli bo‘lishining majburiy shartlaridan biri hisoblanadi. Buning aksi esa mahsulot eksport qiluvchini raqobatchilar yoki “qaroqchilar” oldida himoyasiz qilib qo‘yadi

va bu ularga o‘zlarining ko‘pincha sifatsiz bo‘lgan mahsulotlarini boshqalarning tovar belgisi ostida jazolanishdan cho‘chimay sotish imkonini beradi.

Agar strategik manfaatlari tovar belgisini ko‘pgina mamlakatlarda himoya qilinishini istovchi talabnama beruvchi shaxslar quyidagi milliy, mintaqaviy yoki xalqaro ro‘yxatga olish mexanizmlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq:



Yuqoridagi belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazishga oid usullarning eng maqbuli – bu Xalqaro Madrid tizimi sanaladi. Madrid tizimi bir vaqtning o‘zida bir necha davlatlarda tovar belgilarini ro‘yxatga olishning xalqaro samarali tizimi hisoblanadi. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) doirasida faoliyat

yuritadigan xalqaro belgilarni ro‘yxatga olish tizimi ikkita xalqaro-huquqiy hujjatga asoslangan bo‘lib, bular – 1891-yildagi xalqaro belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid Bitimi (bundan buyon matnda Bitim deb yuritiladi) va 1995-yil 1-dekabrda kuchga kirgan xalqaro belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid bitimiga doir Bayonnomma. Bu ikki xalqaro-huquqiy aktning boshqaruv funksiyasi bilan BIMTning Xalqaro byurosi (Jeneva, Shvetsariya) shug‘ullanadi. Bitim yoki Bayonnomaning a’zosi bo‘lish uchun Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasi (1883-yil 20-mart)ning qatnashchisi hisoblanadigan har qanday mamlakat, hukumatlararo tashkilot bo‘lishi mumkin.

Madrid Bitimining mohiyati shundan iboratki, ishtirokchi mamlakatlardan biri (“Kelib chiqish mamlakati”)da ro‘yxatga olingan tovar belgisi BIMT Xalqaro byurosida xalqaro ro‘yxatga olish yo‘li bilan boshqa ishtirokchi mamlakatlarda soddalashtirilgan tartibda muhofaza qilinishi mumkin. Bitimga muvofiq ro‘yxatga olish xalqaro ro‘yxatga olish hisoblanadi, chunki har bir bunday ro‘yxatga olish muhofaza so‘ralayotgan barcha mamlakatlarda kuchga ega. Ya’ni, talabnama beruvchidan boshqa ishtirokchi mamlakatlarda milliy ro‘yxatga olish uchun hech qanday qo‘sishimcha xatti-harakatlar talab qilinmaydi.

Bitimga ko‘ra, belgi “Kelib chiqish mamlakati”da ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lishi va har bir davlat belgi maboda milliy ro‘yxatga olish talablariga to‘g‘ri kelmasa, bir yil (12 oy) mobaynida xalqaro ro‘yxatga olishni tan olmay, rad etish huquqiga ega. Biroq, bir yildan keyingi xalqaro ro‘yxatga olingan belgini rad etish mumkin emas. Agar yil davomida bunday rad etish hollari qayd etilmasa, xalqaro ro‘yxatga olish undan kelib chiqadigan mutlaq huquqlar bilan birga milliy ro‘yxatga olish kuchiga ega bo‘ladi.

Madrid Bitimi bo‘yicha xalqaro ro‘yxatga olish tartibi ham tovar belgilari egalari ham patent idoralari uchun bir qator afzalliklardan iborat:

– talabnomani turli tillarda, har bir mamlakatda alohida berish hamda har bir milliy idoraga boj to‘lashning o‘rniga talabnoma beruvchi faqat bitta tilda (fransuz), bitta talabnomani berish va bitta organ (Xalqaro byuro)ga bojni to‘lash yo‘li bilan Madrid Bitimining ishtirokchi mamlakatlarida belgini ro‘yxatga olishni amalga oshiradi;

– milliy patent idoralari uchun ish hajmining sezilarli qisqarishi, masalan, rasmiy ekspertiza o‘tkazish, tovar va xizmatlarning tasnifini aniqlashtirish, xalqaro tovar belgilarini nashr qilish va boshqalarga zarurat yo‘qoladi. Bundan tashqari xalqaro byuro oladigan bojlarlarning bir qismi tovar belgisini muhofaza qilish so‘ralayotgan mamlakatlarga beriladi;

– Xalqaro ro‘yxatdan o‘tishning amal qilish muddati 20 yilni tashkil qiladi hamda uni bir necha bor xuddi shunday davrga uzaytirish mumkin bo‘ladi.

Yuqoridaqgi afzalliklardan tashqari, kamchiligi uning ishtirokchilari orasida AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi muhim mamlakatlarning yo‘qligi hisoblanadi. Madrid Bitimining qoidalari bu mamlakatlarni to‘liq qanoatlantirmaydi, masalan, bir mamlakatda belgini huquqiy muhofaza qilishning kelib chiqish mamlakatidagi uning huquqiy holatiga bog‘liqligi va hokazo.

Bunday kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun 1989-yilda Madrid bitimiga doir Bayonnomma imzolandi. Bayonnomma Madrid tizimini yanada moslashuvchan qilish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ayrim mamlakatlar va hukumatlararo tashkilotlarning Bitimga qo‘shilishiga to‘sqinlik qilgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bir qator yangiliklarni joriy qilganligi uchun ham u ustunroq sanaladi.

Bayonnomma 1989-yilda Ispaniyaning Madrid shahrida Diplomatik konferensiya chog‘ida qabul qilingan. 1995-yilning 1-dekabrdan kuchga kirgan Bayonnomma o‘z faoliyatini 1996-yilning 1-apreldidan boshlagan.

Dastlab O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilning 21-dekabrida Madrid Bitimiga a’zo bo‘lgan. Vaqt o‘tib mazkur Bitim zamon talabiga javob bermay qolgach,

O‘zbekiston 2006-yilning 27-dekabrida Madrid Bitimini denonsatsiya qilib, tovar belgilarini huquqiy tabiatini yangicha belgilab beruvchi Madrid bitimiga doir Bayonnomaga qo‘sildi. O‘zbekistonlik talabnama beruvchilar uchun Bayonnomaning tartiblari qulay va foydali hisoblanadi.

Talabnama beruvchi uchun muhim bo‘lgan Bayonnomalarining Madrid Bitimididan asosiy farqlari quyidagilardan iborat:

–Xalqaro ro‘yxatga olish nafaqat milliy ro‘yxatga olishga, balki tovar belgisi uchun milliy talabnomaga asoslanishi mumkin;

–Milliy idora tomonidan belgining xalqaro ro‘yxatga olinganligini o‘z hududida tarqatishni rad etish to‘g‘risidagi qarorini qabul qilish muddati 18 oygacha, nizoli holatlarda esa undan ham uzoqroq muddatga uzaytirilgan;

– “Markaziy hujum” tamoyili yumshatildi, ya’ni xalqaro ro‘yxatdan o‘tish bekor qilinganda, talabnama beruvchi xalqaro talabnomani milliy va mintaqaviy talabnomaga topshirish sanasi (yoki ustuvorligi) bilan o‘zgartirish huquqiga ega;

–Bayonnomaning ishtirokchi davlatlari belgini milliy ro‘yxatdan o‘tish paytida olinadigan miqdorga teng “individual bojlar”ni belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldi;

–Xalqaro ro‘yxatga olish muddati xalqaro ro‘yxatga olish sanasidan boshlab 10 yilni tashkil etadi hamda uni bir necha bor xuddi shunday davrga o‘zgartirish mumkin;

–Xalqaro belgilarni ro‘yxatga olish tizimiga yangi davlatlarni jalg qilish maqsadida xalqaro talabnama nafaqat, fransuz, balki ingliz va ispan tillarida ham topshirilishi mumkin bo‘lib qoldi.

Bitim va Bayonnomalar alohida shartnomalar hisoblanishiga qaramay, ular a’zo mamlakatlarda qulay iqtisodiy mexanizmini yaratish, ta’minlash va boshqarishni ko‘zda tutuvchi yagona maqsadda faoliyat ko‘rsatadilar.

Bugungi kunda Bayonnomaning a'zolari soni 114 tani tashkil etadi. A'zo davlatlarning joriy ro'yxatini Butunjahon intellektual mulk tashkilotining veb-saytida ko'rish mumkin [www.wipo.int/madrid/ru/members/](http://www.wipo.int/madrid/ru/members/).